Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafuz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'рни.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	
Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	



“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda xalqaro hamkorlik: O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	1690
O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich	
“Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar	1714
Mo‘minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar: O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjiye	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish	2002
Baxtiyorova Dildora	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati	2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari	2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish	2016
Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich	
Axborot ochiqqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri	2023
Shukurova Lilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане	2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи	
Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari	2032
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari.....	2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna	
К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостеприимства Республики Узбекистан.....	2042
Хисамутдинова Альбина Фанисовна	
Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish	2047
Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich	
Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvinining mexanizmlari.....	2051
Abdulkarimov O'tkir Xamzaevich	
Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish.....	2055
Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li	
Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari.....	2060
Skuybida Yevgeniy Vladimirovich	
Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi.....	2065
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar.....	2070
Aipova Iroda Ikromovna	
Yashil moliyalashtirish va uning yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi roli	2076
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Prudensial nazorat mohiyati, zarurligi va uni amaliy ahamiyati	2081
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
Banklararo to'lov tizimi mexanizmini rivojlantirish istiqbollari.....	2085
Abduraximova Feruza Alisherovna	
Banklarda aholi depozitlarini xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish	2092
Azizova Gulrux Xolmamat qizi	
Electricity demand forecasting in case of Uzbekistan	2098
Otabaev Yodgorbek Marim o'g'li	
Kredit-modul muhitida talabalar mustaqil ishlarining tashkiliy tuzilmasi.....	2105
Iskandar Allazov	
Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar tahlili hamda samaradorlikni ekonometrik modellashning obyektiv zarurligi	2110
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Saburov Javohir Kaxramon o'g'li	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish yo'llari	2123
Raximova Dilfuza Mirzakasimovna	
Цифровая трансформация производственных предприятий: опыт внедрения SAP S/4HANA в uzauto motors	2130
Юсупов Равшанбек Аминбаевич, Хусаинов Фолиб Рашидович	
Xorazm viloyati iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor vazifalari.....	2137
Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
Elektr energiyasini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uning muqobil manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish yo'llari	2141
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
Jahon moliya tizimida kriptovalyutalarning roli: evolyutsiya va rivojlanish dinamikasi.....	2146
Jo'rayev Yahyo Ikromjon o'g'li	
Moliyaviy marketing va fond bozori: qanday qilib investorlar ishonchini yo'naltirish mumkin?.....	2150
Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna	
Comparative literature, linguistics, and translation studies: convergences and contrasts.....	2154
Bukhara State Technical University	
Tijorat banklarida dividend siyosatining joriy holati.....	2159
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna	
Oilaviy tadbirkorlik doirasida gulchilikni rivojlantirish	2165
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	



Factors for developing innovative infrastructure in Uzbekistan.....	2170
Uzaydullaev Sherzod Shukurullaevich	
Raqamli transformatsiya va boshqaruvda avtomatlashtirish.....	2181
Rasulova Nargiza Shavkatovna	
Budjet tashkilotlarda asosiy vositalarning eskirishi va unga qo'yiladigan chora tadbirlar.....	2184
Shakarov Qulmat Ashirovich	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo'llari.....	2189
Javlijeva Gulasal Bahriddin qizi	
Islomiy moliyaviy instrumentlar va ularni hisobga olishning tijorat banklari buxgalteriyasiga ta'siri.....	2195
Valiyeva Oydin Orifjonova	
Estetik va lingvistik komponentlarning integratsiyasi: badiiy matnlar asosida til o'rgatish tajribalari.....	2201
Salomova Malika Zoxirovna	
Til o'rgatishda noverbal kommunikatsiyaning psixolingvistik asoslari.....	2206
Kazakova Ditora Gaffarovna	
Adabiy matnlar orqali til o'rgatish: ingliz adabiyotidagi obrazlar asosida til kompetensiyasini	2210
Shoyimqulova Mahzuna Shavkatovna	
Iste'molchilar motivatsiyasida afzal ko'rish nazariyalaridan foydalanish	2214
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
Davlat xaridlari tizimida shaffoflikni ta'minlash orqali budjet samaradorligini oshirish yo'llari.....	2220
Turganbaev Nursultan Bayram uli	
Hududiy notenglikni kamaytirishda ta'lim resurslarini boshqarish strategiyasi	2224
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna	



HUDUDIY NOTENGLIKNI KAMAYTIRISHDA TA'LIM RESURSLARINI BOSHQARISH STRATEGIYASI

Saidaxmedova Nodira Ilxomovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti ta'limda transformasiya masalalari bo'yicha prorektori,
"Ta'lim menejmenti" kafedrası mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor.

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda ta'lim sohasidagi hududiy notenglik holati tahlil qilinadi va uni kamaytirishda resurslarni samarali boshqarish strategiyalari o'rganiladi. Tahlil natijalariga ko'ra, shahar va qishloq hududlari o'rtasida o'qituvchilar soni, infratuzilma, raqamli texnologiyalarga etishish va moliyalashtirish darajasida jiddiy farqlar mavjud. Tadqiqotda miqdoriy va sifat tahlil usullaridan foydalanilib, ta'lim natijalari bilan resurslar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi. Shu asosda ehtiyojga asoslangan moliyalashtirish, raqamli ta'lim tengligini ta'minlash va kadrlar siyosatida rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish kabi amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: ta'lim menejmenti, hududiy notenglik, resurslar taqsimoti, kadrlar siyosati, raqamli ta'lim, ehtiyojga asoslangan moliyalashtirish.

Abstract: This study analyzes the state of regional inequality in the education sector of Uzbekistan and explores strategies for effective management of educational resources to reduce it. The analysis reveals significant disparities between urban and rural areas in terms of the number of teachers, infrastructure quality, access to digital technologies, and the level of funding. Using both quantitative and qualitative research methods, the study identifies a clear correlation between educational outcomes and resource distribution. Based on the findings, practical recommendations are proposed, including needs-based funding, ensuring digital equity in education, and the implementation of incentive-based mechanisms in teacher deployment policies.

Key words: education management, regional inequality, resource allocation, teacher policy, digital education, needs-based funding.

Аннотация: В настоящем исследовании анализируется состояние регионального неравенства в сфере образования в Узбекистане и изучаются стратегии эффективного управления образовательными ресурсами для его сокращения. Согласно результатам анализа, между городскими и сельскими районами существуют существенные различия в обеспеченности педагогическими кадрами, инфраструктурой, доступом к цифровым технологиям и уровнем финансирования. Исследование основывается на количественных и качественных методах анализа, которые выявили взаимосвязь между образовательными результатами и распределением ресурсов. На основе полученных данных разработаны практические рекомендации, включающие внедрение финансирования на основе потребностей, обеспечение цифрового равенства в образовании и стимулирующие механизмы в кадровой политике.

Ключевые слова: управление образованием, региональное неравенство, распределение ресурсов, кадровая политика, цифровое образование, финансирование на основе потребностей.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasini isloh qilish, uning sifatini oshirish va barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga,



mamlakatimizda shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi ta'lim resurslariga bo'lgan imkoniyatlarda, ta'lim sifatini ta'minlashda hali ham muayyan notengliklar mavjud. Bu notengliklar o'quv-metodik bazaning, malakali pedagog kadrlarning taqsimoti, infratuzilma imkoniyatlari va raqamli texnologiyalarga etarlicha kirish imkoniyatlari kabi omillarda o'z ifodasini topmoqda.

Ta'limdagi hududiy notenglik nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillariga zid, balki mamlakatning barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham to'siq bo'lib xizmat qiladi. Shu bois ta'lim resurslarini samarali boshqarish va ularni adolatli taqsimlash orqali hududiy farqlarni qisqartirish ustuvor vazifalardan biridir.

Mazkur maqolada ta'lim resurslarini boshqarish strategiyalari orqali hududiy notenglikni kamaytirish masalasi tahlil qilinadi. Jumladan, ta'lim muassasalari o'rtasida resurslar taqsimotining zamonaviy yondashuvlari, boshqaruv tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish, kadrlar salohiyatini tartibli taqsimlash hamda investisiyalarni hududlarga maqsadli yo'naltirish strategiyalari o'rganiladi. Tahlillar asosida hududiy notenglikni kamaytirishga xizmat qiluvchi samarali boshqaruv mexanizmlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy notenglikni kamaytirish ta'lim siyosatida dolzarb muammolardan biri bo'lib, jahon miqyosida turli strategik yondashuvlar bilan hal etib kelinmoqda. Ushbu masala yuzasidan olimlar va tadqiqotchilar tomonidan turlicha nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda ta'lim sohasida hududiy notenglik muammosi ilmiy va amaliy tadqiqotlarda alohida e'tibor markazida turibdi. Masalan, S.A. To'raeva (2022) ta'lim infratuzilmasining hududlar bo'yicha nomutanosibligini ta'kidlab, resurslar taqsimotida sohaga sarflanadigan mahalliy byudjet mablag'lari va kadrlar muammosiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, resurslar taqsimotida differensial yondashuvni joriy etish, qishloq hududlariga investisiyalarni rag'batlantirish muhim hisoblanadi [4].

U.N. Rajabov (2020) ta'limda raqamlashtirish jarayonlarining hududlar o'rtasidagi imkoniyatlar tengsizligini pasaytirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. U E-learning platformalarini joriy etish orqali chekka hududlarda ham sifatli ta'limni ta'minlash mumkinligini asoslaydi [5].

Rossiya tadqiqotchisi E.V. Tarnavskaya (2019) ta'lim resurslari taqsimotida "normativ-personal" modelini taklif qilib, bu resurslarni talab va demografik ko'rsatkichlar asosida taqsimlashni tavsiya etadi. Uning tahlillariga ko'ra, shunchaki teng taqsimot emas, balki ehtiyoj asosida taqsimlash samarali natija beradi [6].

Qozog'istonlik mutaxassis A.J. Sarsenbaev (2021) hududiy notenglikni kamaytirishda joylarda ta'lim tizimini boshqarishda mustaqillikni oshirish, masalan, mahalliy maktab kengashlariga moliyaviy avtonomiya berish orqali tenglikni ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi [7].

Evropa Ittifoqi mamlakatlarida ta'lim resurslarini boshqarishda EQUITY-FOCUSED strategiyalar keng qo'llaniladi. OECD (2020) hisobotida ta'lim resurslari (pedagog kadrlar, sinflardagi talabalar soni, infratuzilma, raqamli uskunalar) nota'minlangan hududlarga qo'shimcha asosda taqsimlanishi tavsiya qilinadi. Fransuz tadqiqotchisi Marsel Kruaze (2018) ta'lim tengligini ta'minlashda "compensatory financing" (kompensasion moliyalash) modelini samarali deb hisoblaydi [9].

Yaponiya va Janubiy Koreyada ta'lim resurslarini taqsimlashda milliy standartlarga qat'iy amal qilinadi. X. Kim (2017) o'z izlanishlarida ta'lim sifatini barcha hududlarda bir xil saqlab qolish uchun markazlashtirilgan boshqaruv va standartlashtirilgan ta'lim infratuzilmasining ahamiyatini ta'kidlaydi. Xususan, Janubiy Koreyada davlat tomonidan ta'minlanadigan «e-learning village» loyihalari chekka hududlarda notenglikni kamaytirishga xizmat qilmoqda [8].

AQShda hududiy tengsizlik asosan school district funding tizimiga bog'liq. Linda Darling-Xammond (2021) ta'lim byudjetlarini adolatli taqsimlash uchun mahalliy soliq tizimi emas, federal resurslarni qayta taqsimlash (redistribution) vositasini qo'llashni taklif qiladi. National Equity Project (NEP) esa ta'limda tenglikni ta'minlash uchun «equity lens» yondoshuvidan foydalanishni, ya'ni har bir hududning xususiyatlariga mos tarzda resurslarni taqsimlashni tavsiya qiladi.

Yuqorida ko'rilgan manbalar ta'limda hududiy notenglikni kamaytirishda yagona yondashuv yo'qligini, har bir mamlakat o'zining ijtimoiy, iqtisodiy va demografik sharoitiga qarab strategiya ishlab chiqishini ko'rsatadi. O'zbekistonda bu jarayonni samarali tashkil etish uchun xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirgan holda boshqaruv, moliyalash, va raqamlashtirish tizimlarini isloh qilish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ubu tadqiqotda hududiy notenglikni kamaytirishda ta'lim resurslarini boshqarish strategiyalarini baholash va tahlil qilish maqsad qilindi. Bunda mamlakatning shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi ta'lim sohasidagi resurslar farqi, boshqaruv mexanizmlari va amaldagi siyosatlar chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot quyidagi usullar va yondashuvlarga asoslandi:



Tadqiqot aralash (mixed-methods) dizayn asosida olib borildi. Unda ham sifat (qualitative), ham miqdoriy (quantitative) tahlil elementlari qo'llanildi. Bu yondashuv hududiy notenglikning ko'p qirrali tabiati va uni kamaytirish bo'yicha kompleks strategiyalarni anglash imkonini beradi.

Ikkilamchi ma'lumotlar quyidagi manbalardan olindi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid qaror va farmonlari [10, 11]; Xalq ta'limi vazirligi va Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining rasmiy statistik ma'lumotlari; YuNESKO, OECD, World Bank kabi xalqaro tashkilotlar hisobotlari [12]; Ilmiy maqolalar, dissertasiyalar va mutaxassis fikrlari (2020–2024 yillar oralig'ida chop etilgan) [3].

Birlamchi ma'lumotlar esa quyidagi usullar orqali to'plandi: So'rovnoma – 8 ta viloyat va Toshkent shahridagi 50 ta ta'lim muassasasida rahbar va o'qituvchilar o'rtasida o'tkazildi; Intervyu – ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan 15 ta mutaxassis, 3 ta viloyat ta'lim boshqarmasi rahbarlari va 5 ta mustaqil ekspert bilan suhbatlar o'tkazildi.

Miqdoriy ma'lumotlar tahlili: Descriptive statistics (tasviriy statistika): ta'lim resurslari taqsimoti bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar, variatsiyalar va standart og'ishlar hisoblandi. Gini koeffisienti va indeks tahlili: hududlar o'rtasida ta'lim resurslarining noteng taqsimlanganlik darajasi baholandi. Correlation va regression tahlil: ta'lim resurslari va ta'lim natijalari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi.

Kontent tahlil: davlat siyosatlarini, farmonlar, strategiya va dasturlarda ta'lim resurslariga oid qarashlar va amalga oshirilgan choralar mazmuniy tahlil qilindi. SWOT tahlil: ta'lim resurslarini boshqarishda kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va xavf-xatarlar aniqlandi.

Tadqiqot hududiy farqlarni o'rganishni nazarda tutgani bois, shahar va qishloq maktablari, viloyat markazlari va chekka hududlar o'rtasida taqqoslovchi tahlillar amalga oshirildi. Taxminan 12 ta hudud qamrab olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida O'zbekistonning turli hududlarida ta'lim resurslarining taqsimoti, ularning sifati va samaradorligi chuqur tahlil qilindi. Ushbu tahlildan bir qancha muhim natijalar aniqlandi:

1. Resurs taqsimotida hududiy disbalans mavjud. Toshkent shahri va ayrim markaziy viloyatlarda ta'lim resurslari (o'qituvchi, infratuzilma, raqamli texnologiyalar) ancha yuqori darajada ta'minlangan bo'lsa, Qashqadaryo, Surxondaryo va Qoraqalpog'iston kabi chekka hududlarda bu ko'rsatkichlar ancha past ekanligi ma'lum bo'ldi. Masalan, Toshkentda 1 o'qituvchiga 15 nafar o'quvchi to'g'ri kelsa, Qoraqalpog'istonda bu ko'rsatkich 32 nafarni tashkil etmoqda.

2. Davlat investisiyasi va ta'lim natijalari o'rtasida korrelyasiya mavjud. Investisiyalar miqdori yuqori bo'lgan hududlarda ta'lim natijalari (PISA bahosiga moslashtirilgan o'rtacha baholar) yuqori chiqdi. Masalan, Toshkent shahrida davlat sarmoyalari 800 mlrd so'mdan ortiq bo'lib, o'quvchilarning o'rtacha bahosi 510 ballni tashkil etdi. Bu esa resurslar va natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlaydi.

3. Raqamli ta'lim vositalarining hududiy farqi aniq ko'rinmoqda. Internet va raqamli qurilmalardan foydalanish darajasi shahar maktablarida 90–95% gacha etsa, chekka hududlarda bu ko'rsatkich 50–60% dan oshmaydi. Bu raqamli tengsizlikning hali ham ta'limdagi imkoniyatlar notengligini oshirayotganini ko'rsatadi.

4. Kadrlar ta'minotidagi muammolar – asosiy notenglik manbai. Qishloq hududlarida etarli malakaga ega o'qituvchilarning etishmasligi, ularning ushbu hududlarda faoliyat yuritishga qiziqishi pastligi natijada ta'lim sifatining keskin pasayishiga sabab bo'lmoqda. Oliy ma'lumotli yosh kadrlar asosan markaziy hududlarga intiladi, bu esa notenglikni kuchaytiradi.

5. Hududiy notenglikni kamaytirish uchun boshqaruv strategiyalari etarlicha samara bermayapti. Mavjud resurslar taqsimoti ko'proq mexanik va demografik ko'rsatkichlarga asoslangan bo'lib, ehtiyojlarga qarab individual yondashuvlar amalda yo'q. Bu esa resurslar samarasiz taqsimlanishiga va natijalarda tengsizlik paydo bo'lishiga sabab bo'lyapti.

1-jadval. O'zbekistonning turli hududlarida ta'lim resurslari taqsimoti va sifatidagi asosiy ko'rsatkichlar tahlili.

№	Hududlar	1-o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni	Internet/ raqamli ta'lim qurilmalari (%)	Infratuzilma etarliligi (%)	Davlat investisiyasi (mlrd so'm)	Olingan baholar o'rtachasi (PISAgA moslashtirilgan)
1	Toshkent sh.	15	95%	90%	800	510
2	Sa-marqand	20	80%	75%	520	470
3	Qashqada-ryo	28	60%	58%	340	430
4	Surxon-daryo	30	55%	50%	320	420



5	Qoraqal-pog'iston	32	50%	45%	300	415
6	Jizzax	25	65%	60%	360	440
7	Namangan	22	68%	63%	400	455

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-jadvaldan ham ko'rinib turibdiki o'qituvchi yuklamasi, Toshkent shahrida 1 o'qituvchiga 15 nafar o'quvchi to'g'ri keladi – bu esa eng kam yuklama, Qoraqalpog'iston va Surxondaryoda bu ko'rsatkich 30–32 nafarga etgan – bu yuqori yuklama va ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, xulosa o'rnida to'xtalib o'tish kerakki kadrlar taqsimoti nomutanosibligi, qishloq hududlar kadr etishmovchiligi bu salbiy ko'rsatkichni asosiy sabablaridan biridir.

Raqamli ta'lim imkoniyatlariga to'xtaladigan bo'lsak bu ko'rsatkich Toshkent (95%) va Samarqand (80%) raqamlashtirishni tashkil etadi, Qoraqalpog'iston (50%) va Surxondaryo (55%) raqamli ta'lim vositalari bo'yicha ortda qolmoqda. Buning sababi imkoniyatlar notengligi raqamli ta'limni ham hududiy disbalansga aylantirgan. Keyingi argumentlar infratuzilma deb qaraydigan bo'lsak Toshkent (90%) va Samarqand (75%)da maktab binolari, jihozlar va qulayliklar yuqori, Qoraqalpog'iston va Surxondaryoda infratuzilma 45–50% darajada. Bu esa infratuzilma quyi hududlarda ta'limni sifatli tashkil etish imkonini cheklaydi.

Bu to'g'rida davlat investisiyalari ko'p bo'lgan hududlarda (800 mlrd so'm – Toshkent) ta'lim sifat ko'rsatkichi yuqori, kam sarmoya kiritilgan hududlarda (300–340 mlrd so'm) sifat past. Demak, investisiya va ta'lim natijalari o'rtasida ancha kuchli bog'liqlik mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim natijalarini baholashda PISA ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori ball Toshkent (510), Samarqand (470), Qoraqalpog'iston respublikasi (415) ko'rsatkichlardan iborat. Bu ko'rsatkich boshqa barcha parametrlar bilan korrelyasiya qilyapti ya'ni resurs qancha ko'p bo'lsa, natija shuncha yuqori.

Hududlar o'rtasida ta'lim resurslarining taqsimotida jiddiy notenglik mavjud. Bu notenglik kadrlar, infratuzilma, raqamli ta'lim vositalari va davlat sarmoyasi orqali namoyon bo'lyapti. Har bir ko'rsatkich PISA baholari bilan bog'liq: resurs – ta'lim natijasi bog'liqligi aniq. Bu holatni bartaraf etish uchun ehtiyojga qarab moliyalashtirish, kadrlar siyosatida imtiyozlar va raqamli texnologiyalardan teng foydalanish zarur.

Tahlil natijalari O'zbekistonda ta'lim resurslarining hududlar bo'yicha taqsimotida jiddiy notengliklar mavjudligini tasdiqladi. Ushbu tengsizlik bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda: kadrlar yuklamasi, infratuzilma sifati, raqamli ta'lim vositalariga kirish imkoniyati va davlat tomonidan ajratiladigan sarmoya miqdori. Bu natijalar jahon amaliyotidagi tadqiqotlar bilan ham uyg'unlikda, ham farqli nuqtalarga ega.

Ushbu tadqiqot davomida ta'lim resurslari (o'qituvchi soni, infratuzilma, raqamli ta'lim qurilmalari) va ta'lim natijalari (PISA baholariga moslashtirilgan o'rtacha ko'rsatkichlar) o'rtasida ijobiy korrelyasiya mavjudligi aniqlandi. Bu holat Linda Darling-Hammond (2021) va OECD (2020) hisobotlarida ta'kidlangan "resurslar oqilona taqsimlanmasa, natijalar tengsizligi yuzaga keladi" degan xulosalarni tasdiqlaydi [1, 2].

Qoraqalpog'iston, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi maktablar eng past resurs ta'minoti va ta'lim natijalarini ko'rsatgan. Bu holatda ta'lim siyosatidagi "universal yondashuv"ning samarasizligi namoyon bo'lmoqda. Mahalliy ehtiyojlarga moslashtirilgan boshqaruv modellari mavjud emasligi, resurslarni "boshqariladigan tengsizlik" asosida qayta taqsimlash zarurligini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqotda kadrlar bilan ta'minlashdagi hududiy nomutanosiblik ta'lim notengligining asosiy manbai sifatida qayd etildi. Bu holat Rossiya, Qozog'iston va Janubiy Koreya olimlari ham ta'kidlagan muammolar qatorida. Masalan, Sarsenbaev (2021) mahalliy o'qituvchilarni tayyorlash va ushbu hududlarda saqlab qolish siyosatiga o'tishni tavsiya etadi.

Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun bir necha strategik choralar zarur: needs-based budgeting – ehtiyoj asosida moliyalashtirish; targeted incentives – chekka hududlarda faoliyat yurituvchi o'qituvchilar uchun imtiyozlar; raqamli tenglik – maktablarga teng internet va qurilma kiritish; infratuzilmani rivojlantirish – kapital investisiyalarni chekka hududlarga yo'naltirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar natijasiga ko'ra, O'zbekiston ta'lim tizimida hududiy tenglikka erishish yo'lida katta qadamlar tashlanmoqda. Shahar va qishloq hududlari o'rtasida ta'lim resurslarining taqsimoti, jumladan, malakali o'qituvchilar soni, infratuzilma holati, raqamli ta'lim vositalariga doimiy e'tibor qaratilib, tenglikni ta'minlash uchun kerakli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim resurslarini taqsimlashdagi umumiy yondashuv hududlarning aniq ehtiyojlarini hisobga olishga intilib, markazlashgan va statistik ko'rsatkichlarga asoslangan taqsimotning kamchiliklari bartaraf etilmoqda. Bu esa salohiyati past bo'lgan hududlarda ta'lim sifatini yaxshilash va undagi natijalarni oshirishga qaratilgan samarali sa'y-harakatlarga sabab bo'lmoqda.



Tahlildan ma'lum bo'ldiki, resurslar miqdori bilan ta'lim natijalari o'rtasida aniq ijobiy bog'liqlik mavjud. Bunday sharoitda notenglikni bartaraf etish uchun resurslarni shunchaki teng emas, balki adolatli va natijador asosda boshqarish muhim hisoblanadi: 1. Ehtiyojga asoslangan moliyalashtirishni joriy etish (Needs-based budgeting), har bir hududda ta'lim resurslari holatini baholab, mablag'larni ehtiyojga mos ravishda taqsimlash. 2. Qishloq hududlarga kadrlar jalb qilishni rag'batlantirish, qishloqda faoliyat yurituvchi o'qituvchilar uchun uy-joy, maosh va malaka oshirish sohasida imtiyozlar berish. 3. Raqamli ta'lim tengligini ta'minlash, internet infratuzilmasini barcha maktablarga etkazish, planshet va noutbuklar bilan ta'minlash. 4. Infratuzilmani qayta qurish va rivojlantirish, eski va qoniqarsiz holdagi ta'lim binolarini ta'mirlash, yangi zamonaviy maktablar qurish. 5. Hududiy ma'lumotlar asosida strategiya yaratish, har bir hudud uchun alohida ta'lim rivoji indeksi ishlab chiqish va unga asoslangan boshqaruv strategiyasini qo'llash. 6. Mahalliy boshqaruv organlari salohiyatini oshirish, ta'lim resurslarini mahalliy darajada boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish (autonomy). 7. Resurs taqsimoti monitoringi va jamoatchilik nazorati, ochiq ma'lumotlar portali orqali har yili ta'lim sarmoyasi va natijalari haqida hisobot berish.

Ta'lim resurslarini boshqarishda hududiy tenglikni ta'minlash – faqat moliya masalasi emas, balki ijtimoiy adolat, inson kapitali rivoji va ustuvor davlat siyosati masalasidir. Shu bois, O'zbekiston ta'lim tizimida differensial va maqsadli boshqaruv strategiyasini joriy etish orqali hududlar o'rtasidagi ta'lim notengligini kamaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Darling-Hammond, L. (2021). The flat world and education: How America's commitment to equity will determine our future. Teachers College Press.
2. OECD. (2020). Education at a Glance 2020: OECD Indicators. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/69096873-en>
3. UNESCO. (2022). Global Education Monitoring Report: Education and Inequality. Paris: UNESCO Publishing.
4. Тўраева, С. А. (2022). Таълим инфратузилмасида ҳудудий ному таносибликларни камай тири шнинг институ ционал асослари. Иқтисодиёт ва таълим, (2), 112–118.
5. Ражабов, У. Н. (2020). Таълимда рақамлаштириш жараёнининг ҳудудий имкониятлар тенглигига таъсири. Ўзбекистон педагогика журна ли, (3), 44–50.
6. Tarnavskaya, E. V. (2019). Regional inequality in education resource allocation in the Russian Federation. Russian Education & Society, 61(2), 123–136. <https://doi.org/10.1080/10609393.2019.1590900>
7. Sarsenbayev, A. Z. (2021). Regional disparities and education policy in Kazakhstan. Central Asian Review of Education, 3(1), 54–69.
8. Kim, H. J. (2017). Equity and quality in education in South Korea: Policy strategies. Asia Pacific Education Review, 18(3), 357–369.
9. Crozet, M. (2018). Public funding and equity in the French education system. Journal of Educational Finance, 43(4), 401–423.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори (2021 йил 6 ноябр) – PQ–5183-сон. “2021–2023 йилларда умумий ўрта таълим тизимини ривожлантириш концепцияси”.
11. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги. (2023). Таълим ресурсларини тақсимлаш бўйича йиллик ҳисобот. Тошкент.
12. The World Bank. (2021). World Development Report 2021: Data for Better Lives. Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2021>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
